NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

2022 - yil 29 - dekabr 230-5-70-Q/22 Konimex tuman hokimligi

Bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotida to‘liq qamrab olish bo’yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlariga hududlarni (mikrohudud) biriktirish to‘g`risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi “Qamrov darajasi past bo‘lgan tumanlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5144-sonli Qarorlariga asosan bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotiga qamrab olish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotiga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotiga qamrab olish bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) tavsifi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Bog‘ch ayoshidagi bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish maktabgacha ta’lim pedagog xodimlari tomonidan birma-bir (uyma-uy) ro‘yxatga olish orqali amalga oshirilsin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari (Q.Shamshiyev), tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi mudiri (D.Davlatova)ga:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari, tuman hokimligi va maktabgacha ta’lim bo‘limi bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta‘limga, maktabgacha ta’lim

tashkiloti bitiruvchilarini ta’limning keying bosqichiga to‘liq qamrab olish, tarbiyalanuvchilarning mashg‘ulotlarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib boorish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4. Belgilansinki, tumandagi maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan tashkilotga biriktirilgan hududdagi bog‘cha yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

5. Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (S.Risbekov)ga: -
Mahalla fuqarolar yig‘inlariga bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’limga jalb etish jarayonida tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (O.Jangirov), mazkur qarorni 1(kun) muddatda tuman hokimligi veb-saytiga joylashtirsin.

7. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Shamshiyev zimmasiga yuklatilsin.

Konimex tumani hokimi **R.Ro`ziyev**

Konimex tuman hokimining
2022 yil 29 dekabrdagi
230-5-70-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Konimex tumani bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)

TAVSIFI

№	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari	MFY nomi	Biriktirilgan hudud nomi
1.	1-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Sho‘rko‘l MFY	Sho‘rko‘l MFY, Xo‘jato‘p, Yangiobod, Kuneobod, Haqiqat, Qiyiqto‘p qishloqlari
2.	2-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	BirlikMFY	Birlik MFY, Abay, Gagarin, Cho‘lpon.Ibn Sino ko‘chalari
3.	3-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Uchtepa OFY	Uchtepa OFY
4.	4-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Yangiqazg‘on OFY	Yangiqazg‘on OFY, Paxtakor, Sarjal, Fidokor, Do‘ngalak ovullari
5.	5-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Baymurod OFY	Baymurod OFY
6.	6-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Sho‘rtepa MFY	Sho‘rtepa MFY, To‘qmang‘it, Shodibek qishloqlari
7.	7-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Sho‘rtepa MFY	Sho‘rtepa MFY, To‘qmang‘it, Shodibek qishloqlari
8.	8-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Ko‘kcha MFY	Ko‘kcha MFY
9.	9-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Navro‘z MFY	Navro‘z MFY, Ajiniyaz, Bazarjirau, Ulug‘bek, Berdaq, Karvon yo‘li, Yoshlik ko‘chalari

10.	10-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	To‘qqiztepa MFY	To‘qqiztepa MFY, Hayotobod, Jayxun, Momiqchi, Kune obod qishlog‘i
11.	11-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Guliston MFY	Guliston MFY, Aytekebi, Yangiavlod, Do‘stlik, O‘zbekiston, Istiqlol, Guliston, Qo‘ng‘irot ko‘chalari
12.	12-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Zafarobod MFY	Zafarobod MFY, Shodlik, Farovon, Konchilar, Yangihayot ko‘chalari
13.	13-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Birlik MFY	Birlik MFY, Abay, Gagarin, Cho‘lpon, Ibn Sino ko‘chalari
14.	14-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Sarjal OFY	Sarjal ovuli
15.	15-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Yangiqazg‘on OFY	Yangiqazg‘on OFY, Paxtakor, Fidokor ovullari
16.	16-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Yangiqazg‘on OFY	Yangiqazg‘on OFY, Paxtakor, Fidokor ovullari
17.	17-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	Baymurad OFY	Baymurad OFY Qalmuradqazg’on ovuli